

TIL O'RGANISHDA FE'LLI FRAZEOLOGIZMLARNING O'RNI

*G.Mirzayeva - ADU, Chet tillar fakulteti
Fakultetlararo chet tillar (aniq va tabiiy fanlar)
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Frazeologik birliklar tarkibi va tuzilishida barqaror, alohida leksik birlik vazifasini bajaradigan, leksik jihatdan bo'linmaydigan va qiymatli so'z birikmasidir. Lingvomadaniy tahlil ijtimoiy hayot darajasining tildagi aks etishini o'rganishda aktiv qo'llaniladi. Jumladan, tildagi fe'lli frazeologik birliklar til egasi hisoblangan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash joyi va tarkibi, intilishi, voqelikka munosabat bilan chambarchas bog'liqdir.

Kalit so'zlar: Linvokulturalogiya, xalq madaniyati, madaniy qadriyat, madaniy omil.

Annotation: Phraseological units are stable in structure and structure, act as a separate lexical unit, lexically indivisible and valuable. Linguocultural analysis is actively used to study the linguistic reflection of the level of social life. In particular, the verb phraseological units of the language are closely related to the spiritual culture, customs, profession, place and composition, aspirations, attitude to reality of the people who speak the language.

Keywords: Linvoculturology, folk culture, cultural value, cultural factor.

Аннотация: Фразеологизмы устойчивы по структуре и структуре, выступают как самостоятельная лексическая единица, лексически неделимы и ценны. Лингвокультурологический анализ активно используется для изучения языкового отражения уровня общественной жизни. В частности, глагольные фразеологизмы языка тесно связаны с духовной культурой, обычаями, профессией, местом и составом, стремлениями, отношением к действительности людей, говорящих на языке.

Ключевые слова: линвокультурология, народная культура, культурная ценность, культурный фактор.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni lingvo-kognitiv, kommunikativ yo'nalishlardan kelib chiqib o'rganish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Tilning mohiyatini o'rganish har bir millatning ma'naviy merosi, tarixi, milliy qadriyatlari, madaniy boyliklarini chuqurroq anglab yetishga imkon yaratib beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi aloqa, milliy mentalitetni anglash tilning mohiyati va uning kommunikativ funksiyasini chuqur va ilmiy o'rganib, tahlil qilishga zarurat yaratib beradi. Xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va o'zaro madaniy aloqalar ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Va bu aloqalarni shakllantirib, mustahkamlash maqsadida yangi tillarni o'rganish va ishlatish

ham kengayib bormoqda. Yangi tilni o'rganish sizga o'sha millatning madaniyatini o'rganishingizga va kerak bolsa his qilishingizga imkon beradi. Shu ma'noda, til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganish dolzarb masala bo'lib qoldi. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator masalalarni o'z ichiga olgan, alohida yo'nalish va predmetni o'z ichiga olgan yangi soha –lingvokulturalogiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Lingvokulturalogiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan hisoblanadi va u madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturalogiya insoniyatning madaniy faktordagi o'rni, ikkinchi tomondan esa til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi. Hozirgi vaqtda lingvokulturalogiya jahon, xususan rus, o'zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. O'zbek tilshunosligida ham bu sohada qator ishlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda tilning frazeologik tizimiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Frazeologik birliklar xalqlarning madaniyati va milliy mentalitet haqidagi ma'lumotlarni ifodalaydigan til birliklari. Biz frazeologik iboralar orqali xalqning milliy mentaliteti, millatning etnomadaniyati haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Umuman olganda, frazeologiya millatning yashash tarzi, madaniyati, milliy an'analari va bilimining yorqin ifodasi. Frazeologik birliklar millatning madaniyatini ko'rsatadigan ma'lumotlar manbai va muayyan lingvomadaniyatni ifodalaydigan yorqin til birligidir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy tilshunoslik rivojida frazeologiyaning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish juda ham munosibdir. Ko'pgina tilshunoslar tomonidan tan olinganidek, tilning frazeologiyalarga boyligi har bir xalqning milliy-madaniy o'ziga xosligini ifodalaydigan vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki mohiyatan, bunday til birliklari shu til foydalanuvchilarining milliy madaniyatini aks ettiradi. Shu sababdan ham bugungi ko'pgina tilshunoslar frazeologik birliklarni o'rganishga alohida e'tibor berib kelishmoqda. Tilshunos V. A. Maslova aytgan edi: "Semantik tuzilishiga ko'ra frazeologik birliklar xalqning davomiy rivojlanish jarayonini ifodalaydi, madaniy qoliqlar, standartlar, timsollarni avloddan avlodga olib uzatadi, muhrlaydi va yozib qo'yadi."

Shu ma'noda, frazeologizmlarni tadqiq qilish va tatbiq qilish jarayonida: 1) ko'pgina iboralarning umumiy ma'nolari yoki ularning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari xalq ruhi uning madaniyat izlarini o'z ichiga oladi va ular aniqlanishi va o'rganilishi kerak;

2) frazeologik birliklarning semantic tuzilishida milly-madaniy ma'lumotlar saqlangan va u insonlarning dunyo haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi; 3) frazeologizmlarning milliy-madaniy o'rganish jarayonida konnotativ xususiyatlari. Lingvistika va lingvokulturalogiyada muqobilsiz leksikon termini keng ishlatiladi.

Muqobilsiz leksik onlar boshqa tilga tarjima ham qilinmaydi va ularni tildagi boshqa konseptlar bilan taqqoslab ham bo'lmaydi. Bunday leksemalarning mohiyati faqatgina o'sha xalqqa tegishli bo'lgan milliy obyektlar, an'analar, milliy kiyimlar, milliy oshxona bilan bog'liq. Masalan ingliz tilidagi: *door hammer- eshik taqqillatuvchi moslama* inglizlarning yashash tarzini ko'rsatadi.

Xulosa

Fe'lli frazeologizmlarning ko'rinishi tarixga, odamlarning hayotiga, ularning ishonchiga, xalqning umumiy rivojiga bog'liq. Ta'kidlab o'tganimizdek, odamlar frazeologizmlarni doimo shu millat uchun ma'lum bo'lgan haqiqatlar asosida oladi va ular shu madaniyatning barcha vakillari uchun tushunarli va ko'rinarli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.phrases.org.uk>
2. <https://www.usingenglish.com>
3. V.L. Arxangelskiy. Zamonaviy rus tilidagi barqaror iboralar. 1964.
4. Sh. Safarov. Kognitiv Tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti 2006.
5. V. A. Maslova. Linvomadaniyat. Moskva "Akademiya" nashriyoti 2001.